

**MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR (FINTECH): O‘ZBEKISTON MOLIYA BOZORIGA
TA’SIRI, IMKONIYATLARI VA XAVFLARI**

Erkinov Ilxomjon Shavkat o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti
tel: 99 471-11-29;
E-mail: ilxom1999erkinov@gmail.com

**ФИНАНСОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ (FINTECH): ВЛИЯНИЕ, ВОЗМОЖНОСТИ И
РИСКИ ДЛЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА**

Эркинов Илхомжон Шавкат угли
магистрант Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан
Тел.: +998 99 471-11-29
E-mail: ilxom1999erkinov@gmail.com

**FINANCIAL TECHNOLOGIES (FINTECH): IMPACT, OPPORTUNITIES AND RISKS
FOR THE FINANCIAL MARKET OF UZBEKISTAN**

Erkinov Ilkhomjon Shavkat o‘gli
Master’s student, Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan
Tel.: +998 99 471-11-29
E-mail: ilxom1999erkinov@gmail.com

Anotatsiya

Mazkur maqolada moliyaviy texnologiyalar (FinTech) tushunchasi, ularning O‘zbekiston moliya bozoridagi roli va rivojlanish istiqbollari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda FinTech’ning asosiy yo‘nalishlari — raqamli to‘lov tizimlari, raqamli bank xizmatlari, onlayn kreditlash, investitsion texnologiyalar, sug‘urta texnologiyalari (InsurTech) va regulativ texnologiyalar (RegTech) — batafsil ko‘rib chiqilgan.

Maqolada FinTech’ning moliya bozoriga ta’siri, imkoniyatlari va xavflari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy tajribalar (Singapur, Buyuk Britaniya, Xitoy) misolida FinTech’ning muvaffaqiyati qonunchilik, davlat siyosati va raqamli savodxonlikka bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, FinTech O‘zbekiston moliya bozorini modernizatsiya qilish, xizmatlar samaradorligini oshirish va raqamli iqtisodiyot shakllanishiga xizmat qiladi. Maqolada FinTech’ni rivojlantirish bo‘yicha huquqiy bazani takomillashtirish, kiberxavfsizlikni kuchaytirish, moliyaviy va raqamli savodxonlikni oshirish hamda startap va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

Аннотация

В данной статье теоретически и практически анализируется понятие финансовых технологий (FinTech), а также их роль и перспективы развития на финансовом рынке Республики Узбекистан. В рамках исследования подробно рассмотрены основные направления FinTech, включая цифровые платежные системы, цифровые банковские услуги, онлайн-кредитование,

инвестиционные технологии, страховые технологии (InsurTech) и регуляторные технологии (RegTech).

В статье проведён научный анализ влияния FinTech на финансовый рынок, выявлены его ключевые возможности и потенциальные риски. На основе зарубежного опыта, в частности примеров Сингапур, Великобритания и Китай, показано, что успешное развитие FinTech во многом зависит от эффективности нормативно-правовой базы, государственной политики и уровня цифровой грамотности населения.

Результаты исследования свидетельствуют о том, что FinTech играет важную роль в модернизации финансового рынка Узбекистана, повышении эффективности финансовых услуг и формировании цифровой экономики. В заключение статьи представлены научно-практические рекомендации по совершенствованию правовой базы, усилению кибербезопасности, повышению финансовой и цифровой грамотности, а также поддержке стартапов и инновационных проектов в сфере FinTech.

Abstract

This article provides a theoretical and practical analysis of the concept of financial technologies (FinTech), as well as their role and development prospects in the financial market of the Republic of Uzbekistan. The study examines the key areas of FinTech, including digital payment systems, digital banking services, online lending, investment technologies, insurance technologies (InsurTech), and regulatory technologies (RegTech).

The paper analyzes the impact of FinTech on the financial market, identifying its opportunities and potential risks. Based on international experience, particularly the cases of Singapore, the United Kingdom, and China, the study demonstrates that the successful development of FinTech largely depends on the effectiveness of the regulatory framework, government policies, and the level of digital literacy.

The findings indicate that FinTech contributes significantly to the modernization of Uzbekistan's financial market, enhances the efficiency of financial services, and supports the formation of a digital economy. The article concludes with scientific and practical recommendations aimed at improving the legal framework, strengthening cybersecurity, increasing financial and digital literacy, and supporting startups and innovative projects in the FinTech sector.

Kalit soʻzlar: Moliyaviy texnologiyalar, FinTech, raqamli toʻlovlar, raqamli bank xizmatlari, onlayn kreditlash, InsurTech, RegTech, moliyaviy inkluziya, raqamli iqtisodiyot, moliya bozori

Ключевые слова: Финансовые технологии, FinTech, цифровые платежи, цифровые банковские услуги, онлайн-кредитование, InsurTech, RegTech, финансовая инклюзия, цифровая экономика, финансовый рынок

Keywords: Financial Technology (FinTech), Digital Payments, Digital Banking, Digital Lending, Investment FinTech, InsurTech, RegTech, Financial Inclusion, Digital Economy, Financial Market

Kirish

Soʻnggi oʻn yillikda dunyo moliya tizimi tubdan oʻzgarib bormoqda. Raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar, sunʼiy intellekt va blokcheyn asosidagi yechimlar anʼanaviy bank xizmatlariga muqobil hamda samarali alternativlarni taqdim etmoqda. Ushbu jarayon umumiy nom bilan FinTech (Financial Technology) deb yuritiladi. FinTech nafaqat toʻlov tizimlarini soddalashtirdi, balki kreditlash, investitsiya, sugʻurta va aktivlarni boshqarish kabi yoʻnalishlarda ham yangi biznes modellarini shakllantirdi. Oʻzbekiston FinTech rivojlanishi istiqbollari mavjud davlatlardan biridir.

FinTechʼning Oʻzbekiston moliya bozoriga taʼsiri

O'zbekistonda so'nggi yillarda raqamli bank xizmatlari va elektron to'lov tizimlari jadal rivojlanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan to'lov infratuzilmasini modernizatsiya qilish, masofaviy identifikatsiya va elektron hamyonlar faoliyatini tartibga solish bo'yicha qator normativ hujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston FinTech bozorining o'sish statistikasi shuni ko'rsatadiki, sektordagi kompaniyalar soni 2018 yildagi 24 tadan 2025 yilda **103 taga** yetdi — bu 4,3 barobar o'sish demakdir. Raqamli to'lovlar bo'yicha tranzaksiya qiymati 2022–2024 yillar mobaynida **114 trillion so'mdan 346 trillion so'mga yaqinlashdi**, bu FinTech xizmatlariga bo'lgan talabning keskin oshganini anglatadi.

Aholi bank xizmatlaridan foydalanish ko'lamida ham sezilarli o'sish kuzatilmoqda: **63,7 milliondan ortiq bank kartalari muomalada**, va **61,9 million nafar foydalanuvchi** masofaviy bank xizmatlaridan foydalanmoqda. . Quyidagi jadvalda FinTech yo'nalishlari, asosiy foyda manbai va bozorga ta'sirini ko'rishimiz mumkin.

FinTech yo'nalishi	Amaliy misollar	Asosiy foyda	Bozorga ta'siri
Raqamli to'lov tizimlari	Click, Payme, Apelsin	Tezkor va qulay to'lovlar	Naqd pulsiz to'lovlar ulushi oshdi
Raqamli bank xizmatlari	TBC Bank Uzbekistan, Anor Bank	Masofaviy xizmatlar	Banklararo raqobat kuchaydi
Onlayn kreditlash	Mobil kreditlash platformalari va ilovalari	Tezkor moliyalashtirish	Kichik biznes faolligi oshdi
Sun'iy intellekt (AI)	Kredit skoring tizimlari	Risklarni kamaytirish	Kredit sifati yaxshilandi
Big Data va analitika	Tranzaksiya ma'lumotlari asosida mijoz xulq-atvorini tahlil qilish	Individual xizmatlar	Mijozlar qoniqishi oshdi

Bozorda Click, Payme, Apelsin kabi to'lov tashkilotlari keng ommalashdi. Raqamli bank xizmatlarini taklif qilayotgan TBC Bank Uzbekistan va Anor Bank kabi banklar esa moliya bozorida yangi raqobat muhitini shakllantirdi.

FinTech'ning asosiy ta'sirlari quyidagilardan iborat:

- Naqd pulsiz to'lovlar hajmining oshishi
- Bank xizmatlarining tezlashuvi va soddalashuvi
- Moliya sektorida raqobatning kuchayishi
- Xizmat xarajatlarining qisqarishi

Natijada, mijozlar uchun qulaylik ortib, moliya bozorining shaffofligi va samaradorligi oshmoqda.

FinTech imkoniyatlari

FinTech uzoq hududlarda yashovchi yoki an'anaviy bank xizmatlaridan foydalana olmaydigan aholiga moliyaviy xizmatlarni yetkazish imkonini beradi. Mobil ilovalar orqali hisob ochish, kredit olish yoki to'lovlarni amalga oshirish mumkin.

Statista ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston **raqamli to'lovlar bozorining umumiy tranzaksiya qiymati 2025 yilda taxminan US\$9,38 mlrd** (ya'ni bir necha o'n

trillion so‘m) bo‘lishi kutilmoqda, va bu ko‘rsatkich 2030 yilgacha 25–30 mlrd dollarga oshishi prognoz qilinadi. Raqamli to‘lov tizimlari va onlayn kreditlash platformalari kichik va o‘rta biznes subyektlariga tezkor moliyalashtirish imkonini yaratadi. Bu esa tadbirkorlik muhitini yaxshilaydi.

Sun‘iy intellekt asosida kredit skoring, blokcheyn orqali xavfsiz tranzaksiyalar, “Big Data” tahlili orqali mijoz xulq-atvorini o‘rganish kabi imkoniyatlar bank tizimini yanada samarali qiladi.

Xorijiy tajriba

FinTech rivojida ayrim davlatlar yetakchi hisoblanadi. Masalan:

- Singapur – davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan FinTech-hub va qulay regulyativ muhit orqali Osiyoning moliyaviy markaziga aylangan.
- Buyuk Britaniya – “open banking” tizimini joriy etib, banklar va startaplar o‘rtasida ma‘lumot almashinuvini yo‘lga qo‘ygan.
- Xitoy – raqamli to‘lovlar va super-illovalar (Alipay, WeChat Pay) orqali naqd pulsiz iqtisodiyotni keng yoygan.

Dunyo bo‘ylab PayPal, Stripe, Revolut kabi FinTech platformalari nafaqat to‘lov, balki xalqaro tranzaksiyalar, hisob-kitoblar va investitsiya xizmatlarini ham taklif qiladi. Bu startaplar FinTech bozorida raqobatni kuchaytirish, xizmatlarni global darajada kengaytirish kabi yangi yo‘nalishlarni yaratmoqda.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, FinTech muvaffaqiyati uch omilga bog‘liq:

1. Qonunchilik bazasining aniqligi
2. Innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi davlat siyosati
3. Aholining raqamli savodxonligi

O‘zbekiston uchun ham aynan shu yo‘nalishlarda tizimli islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xavf va muammolar

FinTech‘ning tezkor rivojlanishi bilan bir qatorda bir qator xavflar ham yuzaga keladi:

- Kiberxavfsizlik tahdidlari – ma‘lumotlar o‘g‘irlanishi va firibgarlik xavfi
- Huquqiy bo‘shliqlar – yangi texnologiyalarni tartibga solishdagi murakkablik
- Bozor konsentratsiyasi – bir nechta yirik kompaniyalarning ustun mavqei
- Raqamli tafovut – aholining barcha qatlamlari teng darajada foydalana olmasligi

Shu sababli, FinTech‘ni rivojlantirish bilan birga xavfsizlik va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda FinTech rivoji iqtisodiy o‘shishning muhim drayveriga aylanishi mumkin. Ayniqsa, yoshlar va startap ekotizimi uchun keng imkoniyatlar mavjud. Biroq, agar kiberxavfsizlik va huquqiy nazorat yetarli darajada ta‘minlanmasa, bu jarayon moliya tizimida ishonch muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.

Shuningdek, FinTech‘ni rivojlantirishda xorijiy tajribani to‘liq ko‘chirib olish emas, balki milliy sharoitga moslashtirish muhim deb hisoblayman.

Xulosa

FinTech O‘zbekiston moliya bozorini modernizatsiya qilayotgan muhim omil hisoblanadi. Raqamli to‘lovlar, onlayn bank xizmatlari va innovatsion startaplar iqtisodiyot samaradorligini oshirmoqda. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri regulyatsiya va raqamli savodxonlik FinTech

muvaffaqiyatining asosiy shartidir. Kelajakda O‘zbekiston FinTech sohasida mintaqaviy markazga aylanish salohiyatiga ega. Buning uchun esa barqaror huquqiy baza, xavfsiz infratuzilma va innovatsion muhitni yanada mustahkamlash zarur.

Takliflar

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, FinTech sohasini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Huquqiy-me‘yoriy bazani takomillashtirish

FinTech subyektlari faoliyatini aniq va shaffof tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda ularni xalqaro standartlarga moslashtirish zarur.

2. Kiberxavfsizlikni kuchaytirish

Raqamli moliyaviy xizmatlar xavfsizligini ta‘minlash maqsadida axborot xavfsizligi standartlarini joriy etish va doimiy monitoring mexanizmlarini rivojlantirish lozim.

3. Moliyaviy va raqamli savodxonlikni oshirish

Aholi va tadbirkorlar uchun FinTech xizmatlaridan samarali va xavfsiz foydalanish bo‘yicha ta‘lim dasturlarini kengaytirish muhim.

4. Startap va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash

FinTech startaplari uchun grantlar, soliq imtiyozlari va inkubatsiya markazlarini rivojlantirish orqali innovatsion muhitni mustahkamlash zarur.

5. Xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish

Rivojlangan davlatlar tajribasini to‘liq ko‘chirib olish emas, balki mahalliy moliya bozori xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arner, D.W., Barberis, J. & Buckley, R.P. (2016). *The Evolution of FinTech: A New Post-Crisis Paradigm?* **Georgetown Journal of International Law**, 47(4), pp. 1271–1319.
2. Gomber, P., Koch, J.A. & Siering, M. (2017). *Digital Finance and FinTech: Current Research and Future Research Directions*. **Journal of Business Economics**, 87(5), pp. 537–580.
3. World Bank (2020). *Fintech and the Future of Finance*. Washington, DC: World Bank Publications.
4. Bank for International Settlements (2018). *Sound Practices: Implications of FinTech Developments for Banks and Bank Supervisors*. Basel: BIS.
5. OECD (2018). *Financial Markets, Insurance and Pensions: Digitalisation and Finance*. Paris: OECD Publishing.
6. Vives, X. (2019). *Digital Disruption in Banking*. **Annual Review of Financial Economics**, 11, pp. 243–272.
7. Lee, I. & Shin, Y.J. (2018). *Fintech: Ecosystem, Business Models, Investment Decisions, and Challenges*. **Business Horizons**, 61(1), pp. 35–46.
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2022). *To‘lov tizimlari va raqamli moliyaviy xizmatlar bo‘yicha normativ hujjatlar to‘plami*. Toshkent.
9. International Monetary Fund (2021). *FinTech: The Experience So Far*. IMF Policy Paper. Washington, DC.
10. Zavolokina, L., Dolata, M. & Schwabe, G. (2016). *FinTech – What’s in a Name?* **Proceedings of the International Conference on Information Systems (ICIS)**